

TASDIQLANGAN

sirtidan majlis bayonnomasi bilan
Kuzatuv kengashining
"Tenge Bank" ATB
2021-yil 04- oktyabrdagi № 20

"Tenge Bank" ATBning garov siyosati

Toshkent – 2021-y.

Agar kreditning (moliyaviy vositalarning) qaytarilishini ta'minlash sifatida bir nechta garov predmeti taqdim etilgan bo'lsa, qarzidor tomonidan moliyalashtirish shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlari lozim darajada bajarilgan taqdirda va garov ta'minotini kamaytirish talabi bilan qarz oluvchi/garovga qo'yuvchi yozma murojaat qilgan paytda baholovchi tomonidan aniqlangan garov predmetlarining bozor qiymati (Qoidalar talablariga muvofiq Bankning pasaytiruvchi koeffitsiyentini hisobga olgan holda) qarz oluvchi majburiyatlarining bajarilmagan qismi summasidan oshgan taqdirda, Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatda bir yoki bir nechta garov predmetlarini garovga qo'yish to'g'risidagi shartnomani (shartnomalarni) qarzidor majburiyatlari miqdoridan oshadigan qismida bekor qilish (o'zgartirish) choralari ko'rish mumkin.

Bank garovga qo'yilgan mol-mulkni uning likvidligidan (birinchi navbatda kamroq likvidli mol-mulkni berish tavsiya etiladi) va obyektning daromadlilik darajasidan (birinchi navbatda kamroq daromadli mol-mulkni berish tavsiya etiladi) kelib chiqqan holda navbat bo'yicha ta'minot tarkibidan chiqaradi, bunda u yoki bu ta'minotni chiqarishning maqsadga muvofiqligini Bankning vakolatli organi belgilaydi. Ishlab chiqarish/mulkiy majmua/korxonaning ajralmas qismi bo'lgan, mol-mulkdan kompleks foydalanish uchun zarur bo'lgan, shu jumladan quyidagilar kabi yagona texnologik siklni ifodalovchi mol-mulkning bir qismi garovdan chiqarilishi mumkin emas:

- don qabul qilish korxonasining mol-mulki (ko'chmas mulk va asbob-uskunalar);
- avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari va neft bazalari (ko'chmas mulk va asbob-uskunalar);
- qishloq xo'jaligi korxonasi: elevator, qishloq xo'jaligi texnikasi va unga tutash yerlar (odatda, vaqtinchalik yerdan foydalanish huquqi asosida);
- ishlab chiqarish yoki sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan mulkiy komplekslar, shu jumladan zavodlar/fabrikalar va boshqa ishlab chiqarish obyektlari (tegishli ishlab chiqarish uskunalari bo'lgan ko'chmas mulk).

Qarz oluvchi/garovga qo'yuvchining garov ta'minotini kamaytirish to'g'risidagi yozma murojaatini ko'rib chiqishda, agar Bank vakolatli organining qarorida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, quyidagi talablarga amal qilish lozim:

- qarz oluvchi/garovga qo'yuvchining Bankka murojaati Bank tomonidan ko'rib chiqilgan sanada muddati o'tgan qarzidorlikning mavjud emasligi;
- qarz oluvchi, garovga qo'yuvchi tomonidan kelgusida bajarilishi lozim bo'lgan har qanday bajarilmagan va muddati kechiktirilgan majburiyatlarning, shu jumladan ular bo'yicha imtiyozli to'lov muddatlari belgilangan majburiyatlarning va/yoki alohida shartlar sifatida ko'rsatilgan majburiyatlarning (masalan, huquqni belgilovchi hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha kechiktirish/qolgan garovlar bo'yicha yoki ta'minot taqdim etish bo'yicha yuridik e'tirozlarni bartaraf etish) mavjud emasligi. Tegishincha, Bankda qarz oluvchining talabiga ko'ra garov predmeti (predmetlari) olingandan keyin qoladigan garov predmeti (predmetlari) ga tegishli ravishda rasmiylashtirilgan huquq belgilovchi, identifikatsiya qiluvchi va boshqa hujjatlarning mavjudligi/garovga qo'yuvchi;
- kreditlash dasturi talablariga muvofiq loyiha bo'yicha dastlab nazarda tutilgan ta'minot tuzilmasi qarz oluvchi/garovga qo'yuvchining tegishli kreditlash dasturi bo'yicha qabul qilingan garov narsasi (lari) ni bo'shatish to'g'risidagi talabi bajarilgandan keyin yomonlashmasligi kerak;
- garov narsasi olingandan keyin qolgan mol-mulkning Bank qoidalar va ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq ta'minotga qo'yiladigan talablarga muvofiqligi.

–